
MAHALLALARDA OBODONLASHTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Obod yurtning fayzi, tarovati o'zgacha bo'ladi. Zotan, ozodalik, poklik, saranjom va sarishtalik yurtimizning yanada ko'rkam bo'lishiga zamin yaratadi. Bunda xalqimizning yillar davomida shakllangan ezgu qadriyati - hashar muhim o'rin tutadi. Bahor fasli kirib kelishi bilan Toshloq tumanidagi mahallalarda tozalash va ko'kalamzorlashtirish ishlari jadal sur'atlarda boshlab yuborildi. Ushbu jarayonda hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalari tartibga keltirilib, mahallalarda gul ko'chatlari, mevali va manzarali daraxtlar ekish, daraxtlarni oqlash va butash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun So'filar MFYda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida hashar yo'li bilan ko'prik qurilish ishlari boshlab yuborildi.

2023-02-27 16:09:56